IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

Sahnaviy ovoz va uni shakillantiruvchi omilar

Abdullayeva Gulnoza

O'zDSMIFMF talabasi

Ilmiy rahbar:**B.G'ofurova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ovoz jarangdorligini shakllantirish va mushtahkamlashning nazariy asoslari.Ovoz paychalari va ularning tuzulishi.Jag' va ularning tovushlari hamda ularning nutq va ovoz sifatiga o'rni va roli,nafas va nafas mashqlari asoslari haqida hikoya qilinadi.

Kalit so'zlar: Artekulatsiya,ovoz apparati,Orfoepiya ,diksiya,diafragma,

«Agar biz 0 ‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi,uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor, buyukyozuvchilami, buyuk shoirlami, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak»4. Chunki san’atkor — tarix va kelajak o‘rtasidagi o'ziga xos ko‘prik, ajdodlar va avlodlar merosini, an’analarini bir-biriga bog‘lovchi vositadir.San’atning yana bir asosiy xususiyati — bu uning eng muhim tarbiya vositasi ekanligi bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti 1.A.Karimov o'zining «Yuksakma’naviyat — yengilmas kuch» asarida «Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa so'z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari deb,ta’riflanishi bejiz emas, albatta», deb ayni haqiqatni aytdi. Bu esa, o‘z navbatida, ana shu badiiy adabiyot zamiridagi so‘z san’atini yanada jonlantirib, xalqning yuragiga yetkazib beradigan ijrochilik san’ati zahmatkashlari - rejissor va aktyorlarga ham birdek mas’uliyat yuklaydi.Sahna nutqi o ‘zining shakllanishi tarixida «sahna nutqi», «badiiy so‘z», «adabiy o'qish», «ifodali o‘qish» kabi bir talay nomlar bilan atalib, anchagina boy nazariy va amaliy tajribalar bilan mustahkamlandi. Bu predmet teatr va so‘z bilan aloqador boigan ijrochilik san’ati sohalarida yetakchi rol o‘ynab keladi. Shubhasiz, bu mavqe istiqbolda ham o‘z qimmatini yo'qotmaydi va mazkur fanning nazariy-amaliy taraqqiyoti bilan birga, emotsional, jonli so‘zning ta’sir doirasi yanada kengayib boradi», deb yozgan edi o'zining «Badiiy o'qish asoslari» kitobida xassos olim S.Inomxo‘jayev.Darhaqiqat, keyingi vaqtlarda «Sahna nutqi» nomi bilan ataluvchi fan g‘oyat muhim va ahamiyatli o‘rinni egallab bormoqda.Ayniqsa, teatr sahnasidagi yaratilgan obrazlar nutqining ravonligi va ommaviy bayramlarning teatrlashtirilgan sahnaviy lavhalaridagi sahnaviy nutqning rivojini nutq texnikasisiz tasavur etib bo'lmaydi.

To'g'ri nafas olish hayot uchun naqadar zaruru bo'lsa,ovoz ham kishilarning bir-biri bilan bo'ladigan muomalasida ham katta ahamyatga ega.Ovozni yo'lga qoyish va sahnaviy ovozga ega bo'lish uchun maxsus tanlangan she'riy matinlar yoki tez aytishlar ustida ishlash maqsadga muofiqdir.Ovoz-bu ovoz apparati yordamida chiqariladigon balandligi, kuchi tembri jihatidan har xil bo'lgan tovushlardir.

Ovozda hiqildoq mushaklari refleks yo’libilan qisqaradi.Odam his, sezgi, fikr-tuyg’ularini ko’pincha ovoz chiqaribifodalaydi (baqirish,kulish,yig’lash,so’zlash,kuylash).Ovozni ta’sirchan va jozibali bo’lishi uchun tinimsiz mashqlar bajarib borilsa, kutilmagan mo’jizalarga erishsa bo’ladi.Inson- markaziy nerv sistemasi boshqaruvida o’z ovozini turli ohanga solaoladi. So’nggi paytlarda, taqlid qilish san’ati juda rivojlanib bormoqda. Ijrochilaryo’g’on yoki ingichka ovoz orqali ijobiy yoki salbiy komik qahramonlar ovozinixuddi o’zinikidek ko’chirib, taqlid qilmoqdalar. Taqlidchilar hayvonlar-uparranda-darrandalarni ongli ravishda o’z kuzatuvlariga asoslanib,imkoniyatlaridankelib chiqqan holda taqlid qilmoqdalar.Ushbu ijrochilar bularning barchasini ko’rko’rona emas, balki ongli

ravishda aynan buni chuqur anglab, hayotiy kuzatuvlargaasoslangan holda bajaradilar.Ovoz qattiq tanglayga urilishi natijasida lab-lunjlarni shishirib, barmoqlarbilan urish yoki chertish hisobiga ajoyib kuy yaratish mumkin. Qo'llarni ohistabo'g'izga urib, karnay ovozini paydo qilsa ham bo'ladi, burunni barmoq bilanqisib, ovoz paychalarini ohista titratib surnay ovozini ixtiro etish mumkin.Bularning barchasi miyadan signal uzatish hisobiga bo'ladi. Nutqning oliy apparati – miyadir.

Nutq organlari anotomiyasi quyidagicha:
1.Havo o'tuvchi a'zolar (kekirdak,bronx va o'pka)2.Ovoz paychalarini o'z ichiga olgan hiqildoq (bo'g'iz)3.Havo bo'shliqlari (xalqum,burun bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i).Nafas apparati-ko'krak qafasi, o'pka, bronx va traxyeyadan iborat bo'lib,nafas chiqarishda va tovush paydo bo'lishida ko'maklashadi. Nafas olganda pauza paydo bo'ladi va bu tovushni tinishi o'z navbatida nutqning fonetik bo'laklanishiga olib keladi.Bo'g'iz-tog'aydan iborat. Qalqonsimon kemirchak (xryash) devorlariga va kichkina piramidasimon kemirchak devorlariga tushgan ovoz paychalari bo'g'izga joylashgan.Ovoz paychalari-bo'g'iz (xiqildoq)ichida oldindan orqaga ketuvchi ikki tashilliq parda burmalaridan iborat. Ovoz xosil bo'lishida bu paylar muhim rolo'ynaydi.Og'iz bo'shlig'I - turli nutq a'zolari til, lab, tanglay, jag'dan iborat bo'lib,kombinatsiyalariga ko'ra hajmi va ko'rinishi turli shaklga kirib turadi.Til - og'iz bo'shlig'idagi eng muhim a'zodir. U o'zining harakatchanligi tufayli qariyb barcha tovushlar yaratilishida ishtirok etadi. Tilning ust qismi uch bo'lakka bo'linadi: 1. Orqa qismi. 2. O'rta qismi. 3. Oldingi qismi. Har bir qism o'z imkoniyatiga ko'ra tovushlar paydo bo'lishi paytida turlicha me'yorda qatnashadi.Ovoz va nutqning faoliyati o'z navbatida nafas olish faoliyati bilan bog'liqdir.

NAFAS, NAFAS MASHQLARI

1.Nafas olish va nafas chiqarish. Og'irlikni ikkala oyoqqa berib tik turibolamiz. Ko'krak qafasimiz salgina oldinga ko'tarilib, elkalar erkin holdakengaytiriladi. Bunda bosh va bo'yin erkin holatda turishi lozim. Bunday texnikmashqlar paytida qomatni tik tutishga alohida e'tibor berish kerak, aks holdabajarilgan mashqlar biz kutgan natijani bermaydi.

2.Diafragmaga nafas olish. Birinchi mashqdagi holatda turib olamiz. Qo'llarbo'shashtiriladi keyin bukiladi kerishishdagi holat (astoydil kerishish emas!)danafas olinadi. Nafas olish jarayonida qo'llarimiz bukilgancha ko'tariladi vabarmoqlar yuqoridan elkalarga tegib turishi kerak. Shundan so'ng nafas chiqariladiva o'sha jarayonning o'zida qo'llar ham bo'shashtirilgancha tushirilad

Nafas gimnastikasi uchun mashqlar

1.Burun o'ng katagini o'ng qo'l ko'rsatkich barmoq bilan berkitib, chap burun katagidan nafas olinadi. Chap burun katagi berkitilib,o'ng burun katagidan nafas olinadi. Ushbu mashq 4-6 marta takrorlanadi.

2.Burun kataklari yon tarafidan ikkinchi ko'rsatkich yoki o'rta barmoq bilan silanadi va nafas olinadi. Nafas chiqarayotib,barmoqlar bilan ohista uriladi va nafas chiqariladi. Mashq 4-6 marta takrorlanadi.3.Gavda to'g'ri holatda. Nafas olamiz va nafas chiqarayotganda asta-sekin erkin, yengil boshni o'ngga so'ngra chapga buramiz va asl holatga kelamiz. Nafas olganda boshni tepaga, pastga tushiramiz. Yana asl holatga kelamiz. Mashqlar 4-6 marta takrorlanadi.

Artikulatsiya — nutq a'zolari faoliyatini takomillashtiruvchi omil sifatida. Lab, til va jag‘ artikulatsiyasi haqida ma'lumot. Artikulatsion mashqlar tizimi va ularning ahamiyati.

2. Diksiya — so‘z va bo'g'inlardagi unli va undosh tovushlarning to‘g‘ri hamda aniq bo‘lishini o'rgatuvchi va ta'minlovchi muhim vosita sifatida. Diksion mashqlar haqida ma'lumot. Yaxshi diksiyaning so‘z san'atidagi o ‘rni va roli. Artikulatsion mashqlar, ya'ni lab, til va jag‘ mashqlarining muntazam bajarilishi — diksiya ustida ishlash demakligi

.3. Unli tovushlar va ularning ohangdorligi, jarangdorligini his etish uchun har bir unli yordamida artikulatsion harakatlar (lab, til, jag‘laming faolligi) yordamida mashqlarni bajarish.

4. Unli va undosh tovushlarning qo‘shilib kelishi. Masalan: pi-bi, pe-be, po-bo, pu-bu, bi-pi, be-pe, ba-pa, bo-po, bu-pu yoki yanada murakkabroq mashqlar tuzish: titi, diti, eiti, ko'zlab biror niyat bilan ijro etiladi.iti, kiti, giti, zisi, risi, lisi, gisi, disi, kpti, gibti va h.k.Bulardan tashqari, doimiy yakka mashqlar uchun maqol. matal va tez aytishlar, folklor asarlardan olingan parchalardan foydalanish mumkin. Boshlang‘ich davrda bu mashqlar asta-sekinlik bilan bajariladi. Keyinchalik esa artikulatsion jarayon faollashtiriladi. Boshida murakkabroq tuyulgan bu mashqlar pirovardida odat tusiga kiradi.

Nafas va uning ahamiyati

Professional va havaskorlik teatr san’ati hamda ommaviy teatrlashgan tadbirlardagi so‘z san’ati uchun ham aralash diafragmal nafas bazasini mukammal egallash muhim amaliy ahamiyatga ega. Nafas mashqlarini o‘zlashtirishda eng oddiy sanoq mashqlaridan boshlab, keyinchalik matnli harakatli mashqlarga (she’riy matnlar, maqol va sajlardan foydalangan holda) o‘tib boriladi.

Orfoepiya — o ‘zbek adabiy talaffuzi me’yorlarini belgilab beruvchi fandir. Bu fanni ommaviy bayramlar rejissorigina emas, balki barcha san’at va madaniyat sohasi xodimlari bilishlari shartdir.Tanlangan matnda urg‘uni aniqlashSo'z bo‘g‘inidagi urg‘u haqida tushuncha.Mantiqiy urg‘u haqida tushuncha.Ijro uchun olingan matndagi so‘z urg‘usi va mantiqiy urg'uni aniqlashning yoilari.

Matn ustida ishlash

Ijro uchun tanlangan matn manzaraviy xarakterga ega bo‘lsa,maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, talaba sahna san’ati elementlarining ilk bosqichlari: eslash, ko‘rish, eshitish, kuzatish, his etish, ta’rif va tasvirlashni mazkur matn parchalaridan topa oladi. Yoki teatr san’atining yetuk allomalari hayotidan olingan kichik lavha yoki talaba o‘zi voyaga yetgan hududning o‘ziga xos urf-odatlari, to‘y-hashamlari, biror bayram tadbirlari haqida matin tanlab aytishlari maqsadga muofiq bo'ladi. Adabiy manzarali parchalarda talabalarni tabiiylikka, ko’rish, muomala kabi xususiyatlarni tarbiyalashda qulaylik tug’diradi. Matn o’zidagi hayotiy manzaralarni ko’z oldiga keltirish (tasavvur etib) ichki nigoh va eshitishni ishga soladi. Shu bilan birga jismoniy sezishni ham ta’minlaydi.

TASVIRIY ADABIY PARCHALAR

Buloq suvi

Jabbor Razzoq.

Balandda, tog’u toshlar orasidan buloq ko’z ochdi. Suvi tip-tiniq, muzdek, bahorda atirgul yaprog’iga qo’ngan shabnamdek toza. U bu yorug’ dunyogachiqish uchun qanchalar kurashdi, metindek toshlar bag’rini yorib o’tib, niyatigaetdi. Quyoshni ko’rdi. Ammo…… Yo’lda to’siqqa duch keldi. Jilg’a bo’ldi, so’ngra shalolaga aylandi. Izlagan yaxshi odamlarni topdi. Ular buloq suviniavaylashdi, miriqib ichishdi, bog’lariga tarashdi, ko’zalariga to’ldirib e’zozlashdi. Afsus, uning bu quvonchi uzoqqa cho’zilmadi. Dunyoda turfa odamlar bor ekan. Yo’lda nimalar qo’shilmadi unga, rangi o’zgardi. Kimlardir chiqindilarni ham tashladi. Buloq suvi bulg’andi va rangi sarg'ayadi.

Oy va Yulduz

Osmonda turib olam-jahonni yorituvchi Oy tun malikasi Yulduzni sevib qolibdi. Yulduzning ishqi ham Oyga tushibdi. Ikkalovi bir yostiqqa bosh qo’yib, birga yashaymiz deb ahdu paymon qilishibdi. Buni Quyosh bilib qolibdi. Oy bilan Yulduzning bir-birini sevib, ahil oila qurishiga qarshi chiqibdi. Oyga: «Bu yo’lingdan qayt», debdi. Oy: «Yo’q qaytmayman. Ahdim ahd, Yulduzga uylanaman», debdi. Quyosh Yulduzga: «Bu niyatingdan qayt», debdi. Yulduz: «Yo’q, bu yo’ldan qaytmayman. Va’dam va’da», debdi. Quyosh: «Hali shunaqami, mana bo’lmasa», deb Oy bilan Yulduzga tashlanibdi. Yulduz qochib qolibdi. Oy qocholmabdi. Quyosh uning yuzini timdalab olibdi.Yulduzning uchishi shundan emish. Oyning yuzida dog’ bo’lishi shundan emish…

«O'zingni san’atda emas, san’atni o'zingda sevgin», deb ta ’lim beradi teatr san’ati asoschilaridan biri K.S.Stanislavskiy. Y a’ni sahnaga chiqib qaddi-qom ating, chiroying yoki boshqa fazilatlaringni namoyish qilma, aksincha, san’atga bolgan cheksiz mehr-muhabbating, u siz tura olmaganing uchun chiqqin, deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Nosirova A, Sahna nutqi, Toshkent-2013y.

Xoliqulova G. Sahna nutqi. Toshkent – 2007 y.

G'ofurova B.Sahna nutqi, Toshkent-2022 y.